

KIBR VA TAKABBURLIKNING INSONGA TA'SIRI

Ilmiy rahbar: Samatov Xurshid

Muallif: Abdalimova Madina Akram qizi

Toshkent axbarot texnologiyalar universiteti Samarqand filiali

Kompyuter injenering fakulteti

(KI24-03 guruh)

*Elektron pochta: **madinaabdalimova388@gmail.com***

Annotatsiya: Mazkur ishda kibr va takkaburlik kabi illatlarning inson shaxsiyati va ijtimoiy hayotiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri tahlil etiladi. Kibr – o'zini boshqalardan ustun ko'rish, takkaburlik esa o'z qadrini sun'iy ravishda oshirib ko'rsatish sifatida talqin qilinadi. Ushbu xususiyatlar insonni haqiqatni tan olishdan, o'z ustida ishlashdan va sog'lom munosabatlar o'rnatishdan mahrum qiladi. Shuningdek, kibrli va takkabur insonlar jamiyatda yakkalanib qolishi, ijtimoiy ishonchni yo'qotishi mumkin. Asarda kibr va takkaburlikning shaxsiy rivojlanishga, axloqiy qadriyatlar shakllanishiga va insonlararo munosabatlarga qanday zarar yetkazishi haqida fikr yuritiladi. Yakuniy xulosalarda esa, kamtarlik va o'zini tahlil qilishning inson hayotida naqadar muhim ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlari:Kibr, takkaburlik, shaxsiy rivojlanish, jamiyat, axloqiy qadriyatlar, kamtarlik, insonlararo munosabatlar.

Har bir mo'min-musulmon banda bilishi lozim bo'lgan qalb xastaliklaridan yana biri kibr va manmanlikdir.

“Kibr”, “takabbur” so'zlari lug'atda kattalik ma'nosini bildiradi va o'zini boshqalardan katta, ustun va afzal hisoblash sifatiga ega shaxsga nisbatan ishlatiladi.

Banda uchun Alloh taoloning ne'matlari ichida iymon va ma'rifatdan ulug'i yo'qdir. Unga erishish uchun bag'rikenglik va qalb ko'zi o'tkirligidan boshqa vasila yo'q.

Kufr va ma'siyatdan kattaroq balo-ofat yo'qdir. Mazkur ikki narsaga chaqirishda qalb ko'rliigi va jaholat zulmatidan boshqa narsa yo'qdir.

Ziyrak kishilar Alloh taolo ularning hidoyatini iroda qilgan va qalblarini islomga keng qilib qo'yganlar. Mutakabbirlar Alloh taolo ularni zalolatini iroda qilgan va qalblarini xuddi osmonga chiqayotgandagi kabi tor va tang qilib qo'yganlar.

Mutakabbir o'z hidoyatiga kafil bo'lishi uchun qalb ko'zi ochilmagan kishidir. Hasad Alloh taolo biror bandaga oxiratda zarari tegmaydigan, dini va dunyosi uchun foydali qilib bergan ne'matni undan ketishini istashdir. Yoki o'sha kishining shunday ne'matga erisha olmasligini xohlashdir. Hasad barcha ulamolarning ittifoqiga ko'ra harom va og'ir gunohdir. Hasad toat-ibodatlarni yo'qqa chiqaradi. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Nabiyl alayhissalom aytdilar: "Hasaddan juda ehtiyot bo'linglar. Chunki hasad olov yog'ochni yegani kabi yaxshiliklarni yeydi", (Imom Ibn Moja rivoyati).

Hasad kishini yomon ishlarga boshlaydi. Hasadchi yolg'on, g'iybat, so'kish va so'kinishdan qutila olmaydi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat qiladilar "Insonlar bir-birlariga hasad qilmagunlaricha yaxshilikda davom etadilar", (Imom Tabaroniy rivoyati). Hasadchi qiyomat kuni Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning shafaotlaridan mahrum bo'ladi. U zot "Hasadchi, chaqimchi, fol ochuvchi bizdan emas, men undan ham emasman", dedilar va ushbu oyatni "Mo'min va mo'minalarga qilmagan gunohlari bilan ozor beradigan kimsalar bo'hton va aniq gunohni o'zlariga olgan bo'lurlar", (Imom Ahmad rivoyati).

Rivoyat qilinishicha, "Olti toifa kishi hisob-kitobsiz do'zahga tushadi: 1) adolatsiz boshliqlar; 2) millatchi arablar; 3) mutakabbir dehqonlar; 4) yolg'onchi tijoratchilar; 5) hasadchi olimlar; 6) baxil boylar" (Imom Daylamiy rivoyati). Hasad birovga zarar berishga boshlaydi. Shu bois, Alloh taolo shaytondan panoh so'ragandek hasadchilardan ham panoh so'rashni o'rgatadi.

Muoz ibn Jabar roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Nabiyl sollallohu alayhi va sallam marhamat qildilar:

“Ishlaringiz muvaffaqiyatli yakunlanishini istasangiz, ularni sir tuting. Chunki har bir ne’mat egasining hasadchisi bordir” (Imom Tabaroniy rivoyati).

Hasadchi har doim kuyib-yonadi, birovlarini ko‘ra olmaydi. Shu bois, doimo uning qalbida g‘am, alam bo‘ladi. Allohning hikmatlarini anglamaydi. Sufyoni Savriy rahmatullohi alayh aytadi: “Hasadchi bo‘lma, kaltafahm bo‘lib qolasan. Hasadchi har doim mahrumdir. Chunki u hech qachon murodiga erisha olmaydi, balki dushmaniga uning maqsadiga yetishishida o‘zi bilmagan holda ko‘maklashib yuboradi. Shu bois hasadchining kosasi oqarmaydi”.

Hasad harom amal, shu bois, undan uzoq turish kerak. Hasaddan dushmanga zarar emas, foyda keladi. Lekin sening diningga zarar bo‘ladi. U tufayli Allohning g‘azabiga duchor bo‘lasan. Sen hasad qilayotib, go‘yo Alloh birovga bergan ne’matni nodonlik bilan yomon ko‘rgandek bo‘lasan. Buning oqibatida gunohkorga aylanasan.

Alloh taolo barchamizni hasaddan asrasin!

Kibr va takabburlikning insonga ta’siri

Inson tabiatan o‘zini qadrlash va o‘ziga hurmat bilan qarash tuyg‘usiga ega. Bu tabiiy ehtiyoj bo‘lib, insonning o‘z shaxsiyatini anglashida muhim rol o‘ynaydi. Biroq bu his-tuyg‘u me’yoridan oshib ketganda, kibr va takabburlik kabi illatlarga aylanadi. Kibr va takabburlik esa inson shaxsiyati va ijtimoiy hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Insoniyat qadimdan buyuklikka, intilib kelgan. Bu intilish tabiiy va sog‘lom me’yorlarda foydali sanaladi. Ammo haddan tashqari o‘zini ulug‘lash, boshqalarni kamsitish, insonni kibr va takabburlik botqog‘iga tortadi. Bu ikki illat nafaqat shaxsiy hayotga, balki ijtimoiy tarqqiyotga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda, jamiyatda kibr va takabburlikning ko‘payishi, insonlar o‘rtasidagi ishonch, hurmat va mehr-oqibat rishtalarining zaiflashishiga olib kelmoqda.

Kibr va takabburlik tushunchasi

Kibr — bu insonning o‘zini boshqalardan ustun ko‘rishi, ularni kamsitishi va mensimasligidir. Takabburlik esa inson o‘z qadrini asossiz ravishda haddan ortiq baland

tutishi, o'zini doimo boshqalardan yuqori qo'yishga intilishidir. Bu illatlar insonning ruhiy va axloqiy rivojlanishiga to'siq bo'lib, uni jamiyatdan uzoqlashtiradi. Qur'onda kibr haqida shunday deyiladi: *"Yerda kibr bilan yurma, chunki sen hech qachon yerni tesha olmaysan va tog'dek ulkan bo'la olmaysan."* (Surat Luqmon, 18-oyat).

Takabburlik esa kibrdan kelib chiqadigan ichki va tashqi holatdir. Takabbur inson o'zini ko'rsatishga, boshqalarni ustidan ustunlik qilishga intiladi. Takabburlik ko'pincha insonning so'zlaridan, harakatlaridan, hattoki nigohidan ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Islom dini kibr va takabburlikni eng katta gunohlardan gunohlardan biri deb biladi. Shayton ham aynan kibr sababli Odam (a.s.)ga sajda qilishdan bosh tortgan va Allohning g'azabiga uchragan.

Farobiy, G'azzoliy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar ham kibr va takabburlikni insonni halokatga olb boradigan xatar sifatida tasvirlangan.

Kibr va takabburlikni salbiy ta'sirlar

Kibr va takabburlik insonni o'z kamchiliklarini ko'rmaslikka olib keladi. Bunday inson tanqidni qabul qilmaydi, o'z xatolarini tan olmaydi va o'z ustida ishlashdan voz kechadi. Natijada, uning shaxsiy va kasbiy hayotida turg'unlik yuzaga keladi, ijtimoiy aloqalari zaiflashadi. Bugungi kunda rivojlanib borayotgan globallashtiruv davrida ham kibr va takabburlik insoniyatga ta'sir ko'rsatmoqda. Kibr va takabburlik sababli:

Jamiyatda ijtimoiy tengsizlik ortadi.

Boy va kambag'al qatlamlar orasidagi tafovut kuchayadi.

Ilm ahli va oddiy kishilar orasida begonalik vujudga keladi.

Yoshlar o'rtasidagi hurmat, ehtirom kabi qadriyatlar zaiflashadi.

Takabburlik insonlar orasida g'urur va hasadni kuchaytiradi. Bu esa jamiyatda adavat, naafrat, nizolarni keltirib chiqaradi.

Falsafa fanida ham takabburlik insoniy kamolotning asosiy dushmani sifatida o'rganiladi. Misol uchun, yunon faylasufi Sokrat:

“Haqiqiy bilim – o‘z bilmasligini anglashdir,” - degan edi. Bu fikr insonni kamtarlikda donishmandlik sari o‘rishini ko‘rsatadi.

Islom dini kibrni eng yomon illatlardan biri deb hisoblaydi. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) marhamat qilganlar:

“Qalbida xantal donasicha kibr bo‘lgan odam jannatga kirmaydi.”

Hadisi sharif, Muslim rivoyati)

Bu hadis kibrning naqadar og‘ir gunoh ekanligini va inson qalbi pok bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi.

Inson o‘z qalbini kibr va takabburlikdan saqlash uchun quyidagi ishlarni bajarishni kerak:

- 1.O‘zini bilish va tan olish – O‘z kamchiliklarini tanib olib, ustidan ishlash.
- 2.O‘zini boshqalar bilan teng ko‘rish – Har bir inson Alloh oldida tengligini anglash.
- 3.Shukr qilish – Qilgan barcha ishlarini o‘z mehnati bilan emas, Allohning inoyati bilan r‘y berganini unutmaslik.
- 4.Qadriyatlarni hurmat qilish – Kichik odam ham, katta insonni ham qadrlash.
- 5.Kamtar ustozlardan o‘rnak olish – Hayotda kamtar va samimiy insonlarga ergashish.

Jamiyatda takabbur insonlar ko‘pincha yakkalanadi, chunki ularning boshqalarga nisbatan sovuq va mensimagan munosabati ishonch va hurmatni yo‘qotadi. Takabburlik shuningdek, axloqiy qadriyatlarning zaiflashishiga, insoniylik va mehr-oqibatning kamayishiga olib keladi.

Kamtarlikning o‘rni

Kamtarlik — insonning o‘zini real baholashi, boshqalarning fikriga ochiqligi va doimiy ravishda o‘z ustida ishlashga tayyor bo‘lishidir. Kamtarlik insonni haqiqiy

ulugʻlikka yetaklaydi. Kamtar inson jamiyatda hurmatga sazovor boʻladi, sogʻlom munosabatlar oʻrnatadi va doimo oʻzini rivojlantirib boradi.

Xulosa: Kibr va takabburlik insonni oʻz haqiqiy salohiyatidan uzoqlashtiradi va uni yolgʻizlikka olib boradi. Har bir inson kamtarlik, samimiyluk va oʻzini tanqid qila bilish fazilatlarini oʻzida shakllantirishi lozim. Chunki inson qadri uning mansabida yoki boyligida emas, balki odobida, axloqida va insoniy munosabatlarida namoyon boʻladi. Kibr va takabburlikni poklanish – insonning eng oliy yutugʻidir. Hayotda kamtarlik va samimiyat bilan yurgan inson – haqiqiy buyuk insondir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil shahar ahlilari haqida. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1993.
2. Imom Gʻazzoliy. Kimyoi saodat. – Toshkent: Movarounnahr, 2003.
3. Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub. – Toshkent: Fan, 1997.
4. Ibrohim Muso ogʻli. Axloq ilmi asoslari. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2012.
5. Hasan Husaynov. Axloq va tafakkur. – Toshkent: Sharq, 1998.
6. Qurʼoni Karim va Hadislar majmuasi. – Maʼnaviyat va maʼrifat nashriyoti, 2005.
7. Muhammad Yusuf. Kamtarlik — buyuklik alomati // Maʼnaviyat va maʼrifat jurnali, 2018-yil, 4-son.
8. Qurʼoni Karim va Tafsirlar. - Maʼnaviyat va Maʼrifat nashriyoti, 2005.
9. Sokrat falsafasi haqida materiallar.